



KORXONALAR QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARISH INNOVATSION FAOLIYATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПРЕДПРИЯТИЙ

ISSUES OF INCREASING INNOVATIVE ACTIVITY AND EFFICIENCY OF CONSTRUCTION MATERIALS PRODUCTION OF ENTERPRISES

Mirisayev Abduraxmon Abdulaxatovich,

Alfraganus universiteti iqtisodiyot kafedrası dotsenti, iqtidodiyot fanlari nomzodi

e-mail: abdurahmonm77@mail.ru

ORCID: 0009-0000-8735-6672

Abduraxmonov Abduraxim Bexzod o'g'li,

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti talabasi

e-mail: malikw07a0a@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotidagi innovatsion rivojlanish natijalari, mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha strategiyalar, qabul qilingan me'yoriy hujjatlar hamda qurilish materiallari tarmog'ida innovatsion faoliyat orqali erishilgan iqtisodiy natijalar va sohada innovatsion faoliyatning samaradorligini oshirish bo'yicha mulohazalar, taklif hamda xulosalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены результаты инновационного развития экономики Узбекистана, стратегии развития инновационной деятельности в стране, принятые нормативные акты и экономические результаты, достигнутые благодаря инновационной деятельности в отрасли строительных материалов, а также комментарии, предложения и выводы по повышению эффективности инновационной деятельности.

Abstract: This article presents the results of innovative development of the economy of Uzbekistan, the strategy for the development of innovative activity in the country, the adopted regulations and economic results achieved through innovative activities in the building materials industry, as well as comments, suggestions and conclusions on improving the efficiency of innovative activities.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat, mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategiyasi, innovatsion loyihalar, qurilish materiallari sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, innovatsion salohiyatni oshirish.

Ключевые слова: инновационная деятельность в экономике, стратегия развития инновационной деятельности в стране, инновационные проекты, промышленность строительных материалов, производство строительных материалов, повышение инновационного потенциала.

Key words: innovative activity in the economy, strategy for the development of innovative activity in the country, innovative projects, building materials industry, production of building materials, increasing innovative potential.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, barcha sohada erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlar asosida innovatsiya jarayonlari alohida o'rin egallaydi. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlaridagi sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini innovatsiya faoliyatining taraqqiyotsiz amalga oshirib bo'lmaganligi sababli bugungi kunda innovatsiya jarayonlarini amalga oshirishni jadallashtirish talab etiladi. Shuning uchun iqtisodiyot tarmog'idagi qurilish materiallari sanoatida, ishlab chiqarishda innovatsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonlarining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish bugunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

2018-yil 21-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilingan hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish ko'zlangan. Strategiyaning bosh maqsadi inson kapitalini rivojlantirish, 2030-yilgacha Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakati tarkibiga kirish etib belgilanishi, respublikada innovatsion faoliyatga naqadar katta e'tibor berilayotganligidan dalolat bermoqda [1].

2026-yilga borib qurilish materiallarining eksporti 1,084 mlrd dollarga yoki 2021-yilga nisbatan 2,5 baravarga oshiriladi. Tarmoqni rivojlantirishga 2 mlrd dollarlik investitsiyalar jalb qilinadi. Yangi investitsiya modelini amalga oshirish natijasida 2021–2025-yillarda 19,5 mingta yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Ushbu davrda mahalliy lashtirilgan qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi joriy yildagidan 1,7 baravarga oshirilib, 1,55 trln so'mga yetkaziladi. 2022–2026-yillarda 7 turdagi yangi innovatsion qurilish materiallarini ishlab chiqarish o'zlashtiriladi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlari va ularda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga asosan ushbu faoliyatning rivojlanishiga keng yo'l ochib beruvchi qonunlarning qabul qilinishi hamda ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishini rag'batlantirish, fan va ishlab chiqarish uzviyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3698-



son Qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan 2019-yilda 39 ta Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan iqtisodiyotni real sektorini rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritalari» ishlab chiqilib, hamkorlikda samarali ishlar yo'lga qo'yilgan. 20 ga yaqin tashkilotda «Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash» jamg'armalari tashkil etilib, jami 45,46 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan [2].

Innovatsion loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan umumiy qiymati 113,42 mlrd miqdorida investitsiya loyihalari o'zlashtirishga erishildi. Shundan 77,0 mlrd ichki investitsiyalar, 1,8 mlrd so'm to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va 34,62 mlrd so'm texnik ko'mak hisobiga amalga oshirilgan. Ushbu investitsiyalarning salmoqli qismi sog'liqni saqlashga 42 % (47,1 mlrd so'm), ta'lim sohasiga 30 % (33,7 mlrd so'm) va sanoatga 26 % (29,2 mlrd so'm) yo'naltirilgan [2].

Toshkentshahar Yashnobod tumanidagi «Yashnobod» innovatsion texnoparkining 23 ta rezidentlari tomonidan 3,1 mln AQSH dollari miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, kimyo texnologiyalari, mashinasozlik hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun yo'naltirildi.

Hozirgi kunda ayrim qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida asosiy fondlarning eskirganligi, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurollantirishga talabning ortib borayotganligi ham ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda, innovatsiya faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar qurilish materiallari sanoatida progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish orqali kuchli industrial salohiyatni yaratishda asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Qurilish materiallari sanoatida ushbu yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar salmog'i 1,3 mlrd dollarni, shundan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 680,4 mln dollarni (52 %) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2016-yilga (360,2 mln dollar) nisbatan qariyb 4 baravarga ko'p. Sohada to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (72,5 mln dollar) oqimi esa 9 baravardan oshdi.

Ushbu soha bo'yicha hududlarni rivojlantirish dasturi doirasida umumiy qiymati 248,6 mln dollar bo'lgan 757 ta loyiha ishga tushirildi. Bunda mablag'lar zamonaviy, energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish

loyihalariga qaratildi. Jumladan, mazkur yilda 3,5 mln tonna sement, 150 ming kub metr temir-beton mahsulotlari, 1,8 mln rulon gulqog'oz (oboi), 200 ming dona sanitar-texnik buyumlar, 180 ming tonna qurilish armaturasi, 27 mln dona keramik bloklar, 35 ming kub metr gazobeton bloklari, 30 ming dona smesitel, 10 mln kv metr gipsokarton listlari, 250 ming kv metr dekorativ panellar, 10,2 ming tonna lak-bo'yoq mahsulotlari, 2,7 mln kv metr keramik plitkalar ishlab chiqarish kabi yangi quvvatlar yaratildi.

Ushbu yangi ishga tushirilgan loyihalar va o'zlashtirilgan investitsiyalarning tarmoq rivoji uchun qulaylik tarafi shundaki, eng avvalo, sohaga yangi zamonaviy texnika va texnologiya kirib keladi, mahsulot turi ko'payadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati yuqori kompyuter texnologiyasi yordamida boshqariladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida ish unumdorligining oshishi kuzatiladi, sarf-xarajatlar miqdori kamayadi.

MUNOZARA

Hozirgi davrda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari innovatsiya faoliyatining natijalaridan samarali foydalanishi yangi imkoniyatlar yaratadi hamda raqobatbardoshlikka ega bo'ladi. O'z navbati bilan ishlab chiqaruvchida mehnat unumdorligi oshadi, sarf-xarajatlar kamayadi, mahsulot sotish hajmi ortadi va rejalashtirilgan foydaning kelishi kabi omillarga ega bo'ladi.

Bu esa korxonani moliyaviy barqarorlikka erishishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun hozirgi rivojlanish bosqichida sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik va eksport salohiyatni oshirishi uchun ularni ishlab chiqarishda innovatsion rivojlanish darajasini baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot jarayonida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalaridagi innovatsion faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari borasida olib borayotgan ilmiy, nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni taqozo etmoqdaki, korxonalar faoliyatidagi turli vaziyatlarda innovatsion rivojlanish darajasini turli parametrlar asosida baholovchi koeffitsiyentdan foydalanish mumkin.

Korxonaning innovatsion salohiyati quyi tizimi ko'rsatkichlari [3]

Quyi tizim	Resurslar tarkibi
Moliyaviy quyi tizim	Ilmiy tadqiqot va investitsiyalar, nomoddiy aktivlar, moliyalashtirish manbalari, moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyati
Xodimlar quyi tizimi	Xodimlarning tarkibi, xodimlarning intellektual sohadaqi ulushi (dasturchilar, tadqiqotchilar, konstruktorlar, texnologlar) xodimlarning umumiy sonida
Material – texnik quyi tizim	Zamonaviy innovatsion va axborot texnologiyalari, kompyuter tizimlari, zamonaviy uskunalar, materiallar, laboratoriya va ofis jihozlari
Tashkiliy va boshqaruv quyi tizimi	Tashkiliy tuzilma, barcha funksiyalar va loyihalar uchun texnologiya, tashkiliy madaniyat. Innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy shakllari
Informatsion quyi tizim	Turli xil ilmiy, innovatsion va innovatsion faoliyat to'g'risida umumiy ma'lumotlar, ilmiy-texnik adabiyotlar, patentlardagi adabiyotlar, ixtirolar, yangi yuqori texnologiyalar, tizimlar va jihozlar, kompyuter tizimlari, ilmiy-texnik hujjatlar, hisobotlar, nizomlar, boshqa loyiha-konstruktorlik hujjatlari to'g'risidagi har xil turdagi ilmiy ma'lumotlar va ma'lumotlarning umumiyliigi, raqobatbarchilar haqida ma'lumot.
Marketing quyi tizimi	Raqobatbardoshlik darajasi, talab mavjudligi, zarur marketing faoliyati

Natija. Korxonada ilmiy-tadqiqot ishlarining ichki xarajatlardagi ulushi va texnikani o'zlashtirishda ishlab chiqarishdagi jami xarajatlar quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$K_I = \frac{3_{\text{ниокр}} + 3_{\text{м}}}{3_{\text{об}}} \quad [3]$$

Bu yerda:

3_{ниокр} – ilmiy tadqiqot ishlariga xarajatlar;

3_м – texnologiyani sotib olish xarajatlari;

3_{об} – ishlab chiqarish xarajatlari.

Ushbu formula bo'yicha korxonaning ilmiy tadqiqot ishlari va yangi texnika-texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishda jami yillik xarajatlar 4 %ni tashkil qilsa, u holda korxona innovatsion va raqobatbardosh rivojlanishga erishadi. Aksincha, korxonaning ilmiy tadqiqot ishlari uchun yillik jami xarajatlar 4 %dan kam bo'lsa, u holda korxona faoliyatida salbiy natija va inqiroz holatlari sodir bo'lishi mumkin.

Korxonaning innovatsion faoliyatini baholashda yuqorida mazmunlari keltirilgan parametrlarning o'lchanishi va unda aniqlangan salbiy natijalarni bartaraf etish, bozor sharoitida korxonani innovatsion rivojlantirish, moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikka ega bo'lishini ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratiladi.

XULOSA

Qurilish materiallari korxonalari innovatsion salohiyatini tahlil qilish va baholashda, birinchi navbatda, uning asosiy tarkibiy qismlari o'rtasida resurslarning oqilona taqsimlanishi va asoslanganligiga e'tibor qaratish lozim. Kelgusida innovatsion salohiyat tarkibining avvalgisiga nisbatan o'zgarishiga erishish uchun asosiy texnik va iqtisodiy omillarning ta'siri tahlil qilinadi. Shu

bilan birga, korxonaning innovatsion salohiyatini oshirish uchun xo'jalik ichidagi zaxiralar ham aniqlanadi.

Jumladan, yuqoridagi taklif etilganlar asosida shakllangan tahlillar natijasida qurilish materiallari korxonalarda innovatsion rivojlanish bosqichiga ega bo'lish uchun quyidagi vazifalarning bajarilishi maqsadga muvofiqdir:

— qurilish materiallari sanoatidagi mavjud innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, yangi texnika va texnologiya, nou-xau va intellektual mulklarni sotib olishni yo'lga qo'yish;

— qurilish materiallari sanoatidagi korxonalarda ilmiy tadqiqot va eksperimental bazani rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini yanada faollashtirish;

— innovatsiya jarayonidagi tajriba ishlarini olib borishda unga mos keluvchi tashkilotlarga buyurtmalar berish va ularni moliyalashtirish masalalarini hal etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

— yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etishni tezlashtirish uchun aksiya, obligatsiya va chet el investitsiyalarini yanada ko'proq jalb etish yo'llarini aniqlash.

Yuqoridagi sanab o'tilgan yo'nalishlar qurilish materiallari tarmog'idagi xo'jalik subyektlarining innovatsion rivojlanishini jadallashtirishga, shuningdek, kam xarajatli ishlab chiqarish, yuqori sifatga ega bo'lish, mahsulotlar raqobatbardoshligi va korxonalarning innovatsion ishlab chiqarish samaradorligi oshishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning 2018-yil 21-sentyabrdagi

«2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5544-son Farmoni.

2. Innovatsion rivojlanish vazirligining 2019-yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirgan ishlar yuzasidan hisoboti.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF- 4947-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktyabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonolari faoliyati samardorligini oshirish to‘g‘risida»gi PQ-3356-son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017-y., 23-dekabr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish haqidagi Farmoni.

7. Журавлев П.В. Теория системного менеджмента. – М.: Экзамен, 2002.

8. Гунин В.Н. и др. Управление инновациями: 17-модульная программа для менеджеров. «Управление развитием организации». Модул 7. – М.: INFRA-M, 2002. – С.178.

9. Ziyayev M.K., Mirisayev A.A., & Aloyeva Z.R. (2023). Develop a strategy for increasing business efficiency in enterprises. ISJ Theoretical & Applied Science, USA 02 (118), 201–206.

10. Ziyayev M.K., Mirisayev A.A., & Aloyeva Z.R. (2023). Some issues in strategic management of enterprises. ISJ Theoretical & Applied Science, USA 02 (118), 466–472.